

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrası

professor-o‘qituvchilari tashabbusi bilan

“O‘lkamizga xush kelding Navro‘z” nomli

ma’naviy-ma’rifiy tadbir

B A Y O N N O M A S I.

15.03.2025 y

Denov tumani

Qatnashdilar: Kafedraning barcha professor-o‘qituvchilari, fizika yo‘nalishi talabalari

KUN TARTIBI:

1. “O‘lkamizga xush kelding Navro‘z” ma’naviy-ma’rifiy tadbirini o‘tkazish.
2. Tadbirda qatnashuvchi 2-bosqich talabalarining chiqishini tomosha qilish.
3. Faol ishtirok etgan talabalarini taqdirlash.

(Tadbir o‘tkaziladigan faollar zali bayramona va Navro‘z shukuhida jihozlangan, ko‘rgazmali jihozlar, plakatlar, so‘zanalar, milliy as‘hoqlar bilan bezatildi. Tadbirni saviyali o‘tishi uchun kerakli texnik jihozlar, ovoz-kuchaytirgich moslamalar, musiqiy asboblari qo‘yilgan).

ESHITILDI:

2025 yil 15-mart kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrası professor- o‘qituvchilari tashabbusi bilan “O‘lkamizga xush kelding Navro‘z” ma’naviy-ma’rifiy tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbirda fizika ta’lim yo‘nalishi talabalari faol ishtirok etdilar.

Tadbirni ochib berish uchun so‘z kafedraning professor-o‘qituvchisi E.To‘rayevga berildi:

“Navro‘z bu - tinchlik, totuvlik, farovonlik bayrami. Millati, dinidan qat’iy nazar, shu yurtida yashayotgan barcha millatlar, elatlar uchun birdek sevimli ayyom, keksayu yosh uchun birdek aziz shodiyona! Bu bayram oddiy bayram emas, balki xalqimizning tarixi, falsafasi, tushuncha tasavvurlari, qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan, millat bilan ulg‘ayib, millat bilan birga taraqqiy etgan, qadim zamonlardan buyon elimiz ardoqlab kelayotgan, yurtimizni ulug‘lab ko‘klarga ko‘tarib kelayotgan bayramdir.”



“O‘lkamizga xush kelding Navro‘z” nomli tadbirda fizika yo‘nalishi 2-bosqich talabalari milliy qadriyatimizga mos bo‘lgan chiqishlari bilan ishtirok etib, o‘zlarining zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan milliy urf-odatlarimizni uyg‘unlashtirgan holda sahna ko‘rinishlari, musiqali kompozitsiyalar va ilmiy-ta’limiy chiqishlar namoyish etdilar. Tadbir davomida talabalar Navro‘zning tabiat va koinot bilan uyg‘unligini fizika qonunlari orqali talqin etib, quyoshning bahorgi

tengkunlikdagi holati, fasllar almashinuvi va qadimiy osmon kuzatuvlariga oid ilmiy ma'lumotlarni milliy ruhda boyitilgan shaklda taqdim etdilar. Ularning chiqishlari tomoshabinlar tomonidan qizg'in qarsaklar bilan kutib olindi. Tadbir qatnashchilariga yanada a'lo kayfiyat ulashish maqsadida milliy kuy-qo'shiqlar ham ijro etildi.

"O'lkamizga xush kelding Navro'z" ma'naviy-ma'rifiy tadbir tantanali va maroqli o'tkazildi.

QAROR QILINDI:

1. "Koinotni zabt etishdagi yutuqlar" ma'naviy-ma'rifiy tadbir maroqli o'tkazildi deb hisoblansin.
2. Tadbirda faol ishtirok etgan talabalar taqdirlansin.
3. Talabalarning fizikaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida bunday tadbirlar yanada ko'proq o'tkazilsin.

Yig'ilish raisi:



E.Yusupov

Kotib:



Sh.Zamonova